



Dildora OMONOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti doktranti, PhD, dotsent
ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-8877-1317>

BuxDU professori, p.f.d A.Hamroyev taqrizi asosida.

MASHQ-YANGI BILIM VA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH MEZONI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning asosiy vositasi mashq va uning turlari haqida so'z boradi. Shuningdek, darslikda berilgan mashq hamda topshiriqlar o'rtasidagi tafovut, yangi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish mezonlari xususidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Mashq o'quvchini rivojlantirish bilan birga ularning tinglash, gapirish, o'qish, yozish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mashq, o'quv topshiriqlari, darslik, nutqiy ko'nikmalar, nutq so'zlash, anglash.

EXERCISE AS A CRITERION FOR DEVELOPING NEW KNOWLEDGE AND SKILLS

Annotation

This article discusses exercise as the main tool for developing students' knowledge, skills, and abilities in primary school native language lessons, as well as its types. It also presents information on the difference between exercises and tasks given in the textbook, and the criteria for developing new knowledge and skills. Exercise serves to develop the student while forming their skills in listening, speaking, reading, and writing.

Keywords: exercise, educational tasks, textbook, speech skills, speaking, comprehension.

УПРАЖНЕНИЕ - КРИТЕРИЙ РАЗВИТИЯ НОВЫХ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ

Аннотация

В данной статье речь идет об упражнении как основном средстве развития знаний, умений и навыков учащихся на уроках родного языка в начальных классах, а также о его видах. Кроме того, изложены сведения о различии между упражнениями и заданиями, данными в учебнике, и критериях развития новых знаний и умений. Упражнение служит развитию ученика, одновременно формируя у них навыки слушания, говорения, чтения и письма.

Ключевые слова: упражнение, учебные задания, учебник, речевые навыки, речевое общение, понимание.

Kirish. Bugun ta'lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Buni ayni paytda xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish orqali yuksak bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganligidan ham anglash mumkin. So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi va talaba-yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim va fan o'rtasida integratsiyani ta'minlash, o'qitishning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, darslik va o'quv dasturlarini takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribalardan foydalanish amaliyoti joriy etilmoqda.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida "o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga

oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ijobiy tajribasini mamlakatimiz ta'lim tizimiga hamda Milliy o'quv dasturiga joriy qilish vazifasi belgilangan edi. Finlyandiya barcha maktab bir xil mavqega ega, o'quvchilar uylari yaqinidagi maktabga borishadi. Finlar o'quvchilarni imtihonga emas, balki hayotga tayyorlashga, e'tiborni iqtidorlilarga emas ko'proq sust o'zlashtiruvchi o'quvchi larga qaratadi. Finlyandiya maktablarida majburiy o'quv dasturlari hamda mahalliy o'quv dasturlari joriy etilgan. O'quv jarayoni predmetli yoki integral bo'lishi mumkin. O'zbekistondan farqli ravishda Integral ta'limda - bir mavzu ma'lum vaqt (soat, kun, hafta) davomida bir nechta fan orqali o'qitiladi.

Maktablarda dars soatlarining taqsimoti haftasiga 1-2-sinflar uchun eng kamida 19 soat qilib belgilangan bo'lsa, 9-sinflar uchun esa ushbu ko'rsatkich 30 soatni tashkil etadi. Maktablar o'quv rejasiga ko'ra, to'qqiz yillik haftalik umumiy yuklama 222 soat. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 254 soatni tashkil etadi.

Tahlil va natija. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bizning ta'lim tizimimizda ayniqsa bugungi kundagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ona tilini o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish,

shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Ona tili fani orqali o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiya rivojlantiriladi; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlar (fonetika, (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalar) rivojlanadi.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır.

Ona tili fani orqali o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiya rivojlantiriladi; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlar (fonetika, (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalar) rivojlanadi.

Ona tili darslarida yangi bilimlarni berish ular orqali ko'nikma hamda malakalar hosil qilish mashq hamda topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Ona tili darslarida mashq va topshiriq tushunchasi yonma yon qo'llanadigan tushuncha hisoblanadi.

Metodologiyasi. Pedagogik ensiklopediyada “mashq” so'ziga quyidagi ta'rif berilgan. Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash[1]. Mas., o'qish, yozish. Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi. Mashqlar odatda ikki asosiy xususiyat – maqsad va unga erishish vositasi bilan tavsiflanadi. Chunonchi, mashq o'quvchining ko'nikma va malakasini hosil qilish vositasi sifatida qayd qilinishi mumkin. Topshiriq esa, egallangan ko'nikmalarni sinash vazifasini bajaradi. U yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o'quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga ham o'rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “Ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Didaktikada “mashq” deganda o'qitish, ya'ni har qanday harakat usulini o'zlashtirishga qaratilgan muntazam takrorlanadigan harakat tushuniladi.

Dunyo ta'lim tizimida darsliklarda berilayotgan mashqlar o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda uning muloqot ko'nikmasini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Mashq – o'quvchida ko'nikma hamda malakani rivojlantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Mashqlarda ketma-ketlik, tizimlilik bo'lishi loim. Boshlang'ich sinf ona tili

darsliklarida mashqlar og'zaki hamda yozma shaklda bajarishni nazarda tutgan mashqlar beriladi.

Og'zaki shakldagi mashqlar o'quvchining og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qilsa, yozma shaklga oid mashqlar o'quvchining yozuv ko'nikmasini rivojlantirishga qaratiladi.

Ma'lumki, asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji va zarurati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biri sanaladi.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezonini uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini kshakllantirish uchun xizmat qiladigan, ularni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz[2].

Fonetikani o'rganishda og'zaki topshiriqlarga ustunlik beriladi. Ammo o'quvchining savodxonlik davridan boshlab og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, mashqlar aqliy faoliyatning xususiyatiga qarab analitik, sintetik va analitik-sintetik mashqlarga tarzida tasniflanadi.

Mashq-nutq ko'nikmalarini hosil qilish yoki takomillashtirish yoxud malakalarni rivojlantirish maqsadida til (nutq) mashqlari yoki harakatlarni maxsus tashkil etilgan holda takroran bajarish mumkin.

Mashq o'quv vositalari toifasiga mos ravishda, ya'ni ularning ierarxiyasidagi eng past qadam sifatida ko'rib chiqilsa, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini boshqarish vazifasini va ularning o'zaro munosabatlarini bajarishga muayyan sharoit yaratadi.

Ularning ehtiyojlari va motivatsion sohasiga, bilim, ko'nikma va malakalariga murojaat qilishi, ularning aniq bajarilishini ta'minlashi lozim. Mashqlar odatda ikki asosiy xususiyat – maqsad va unga erishish vositasi bilan tavsiflanadi. Bunday maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: o'quvchilarga til bilimlarini yetkazish, til va nutq malakalarini shakllantirish yoki takomillashtirish hamda nutq malakalarini rivojlantirish. Bevosita maqsadga (vazifaga) erishishning asosiy vositasi o'quv faoliyati bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: taqlid qilish, farqlash, almashtirish, o'zgartirish. Mashqlarning tarkibiy modeli uchta asosiy komponentga ega:

- a) ko'rsatmalar,
- b) materialni o'rganish mashqlari va
- v) nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usullari.

Har bir mashqni 2 tarkibiy qismga bo'lish mumkin: maqsadli va ijro etuvchi – nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish bilan qo'shib olib boriladigan mashqlarga kiritiladi.

Ona tili darsliklarida sinfda bajarish uchun kommunikativ topshiriqlar, uyda esa, ayniqsa, o'quvchilarning yozma ishlari – o'qitish, ya'ni til strukturasi elementlarini tushunishga qaratilgan topshiriqlar beriladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida berilgan mashqlarni tahlil qilar ekan bevosita darslikdagi mashqlar og'zaki hamda yozma shakllarda berilganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 3-sinf ona tili darslikning 11-sahifasida berilgan 6-mashqda Matnni diqqat bilan o'qing. Matnga sarlavha qo'yib, ko'chiring.

Ushbu mashq o'quvchiga uyga topshiriq sifatida berilgan bo'lib, bevosita uning ijodiy tafakkurini hamda yozma ko'nikmasini, agar matn nima haqida ekanligi so'ralsa bevosita uning og'zaki ko'nikmasini rivojlantirish uchun ham xizmat qiladi.

6-mashq. Men tarix, matematika va jismoniy tarbiya fanlariga qiziqaman. Sport- jon-u dilim. O'g'il bolalar futbolni yoqtirishadi. Ular qatorida men ham. Mahallamizga sport maydonchasi bor. U yerda o'rtoqlarim bilan maza qilib futbol o'ynaymiz. Men har o'yinda raqib darvozasiga to'p kiritaman. O'yinim bilan jamoadoshlarimni xursand qilaman. Orzuim- kelajakda futbolchi bo'lib, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish [3].

1. Fonetik tahlilga qaraydigan bo'lsak, matnda qaysi so'zlarda tovush tushishi mumkin:

Masalan; o'yin +a= o'yna,

2. Leksik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu matnda shevaga oid so'zlarni aniqlang. Matnda qaysi so'zlar o'quvchining so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu matnda shevaga oid so'zlar mavjud emas.

3. Morfologik jihatdan tahlil qilinganda matnda chiziqcha bilan yozilgan so'zlarni toping. Talaffuzi hamda yozilishi mos kelmaydigan so'zlarni toping.

M: jonu-dilim, orzuim -kelajak;

4. Sintaktik jihatdan tahlil qilinganda qaysi gaplar darak gap sifatida berilgan. Sodda hamda qo'shma gaplarni ajratib;

Matnda berilgan barcha gaplar darak gap sifatida berilgan. Matnda 3 ta sodda hamda 5 ta qo'shma gaplar berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mashq ta'lim mazmuni hisoblangan darsliklar tarkibiy qismi bo'lishidan tashqari, alohida tizim sifatida ham qo'llanishi maqsadga muvofiq [4].

Xulosa. Agar darsni qanday tashkil etish, xususan, ona tili darslarida, fonetika, orfoepiya, orfografiya mavzularini o'qitish o'qituvchining ixtiyoriga to'liq topshirib qo'yilsa, o'quvchilarning adabiy talaffuz hamda imloga oid ko'nikma va malakalari bir xil bo'lmasligi muqarrar. Ya'ni, mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining jumladan, o'quvchining zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

ADABIYOTLAR:

1. «Педагогика» энциклопедия. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. – 223-б.
2. A.G'ulomov, H.Ne'matov "Ona tili ta'limi mazmuni" T-1995.
3. M.E.Toirova, Boshlang'ich sinf ona tili darsligi 3-sinf 1-qism 6-b. Toshkent-2023.
4. Faniev T. Ona tili b'yiicha mashqlar bazarish jara'ida u'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtirish. Ped.fanlari nomzodi dissertatsiya avtorreferati. – T., 1991. – 12-б.